



POEMS IN HONOR OF THE MOTHER AND IN THE FORM OF LETTERS

Roza Khabibulleva Mukhammadayubovna

Bukhara State University Foreign Languages Faculty English literature department

Abstrakt: Ushbu maqolda o'zbek adabiyotshunosligida mo'tabar zot Onaga bag'ishlangan asarlarni o'rganish onani ulug'lovchi va maktub shaklidagi she'rlar kuzatiladi. Mazkur she'rlar badiiy jihatdan ancha pishiq, tashbehlarga boy, kompozitsion va janriy jihatdan rang barangdir. Maktub orqali his-kechinmalarni ifoda etish o'zbek mumtoz adabiyotida, qolaversa, dunyo adabiyotida an'anaviylashgan.

Kalit suzlar: She'riyat, ijodkorlik, adabiyot, tasvir, san'at, qadrlash, ohang, tavsif, ifoda.

Onani ulug'lovchi va maktub shaklidagi she'rlar

Zamonaviy adabiyotimizda ona mavzusida bitilgan asarlar bisyor. A.Oripov, E.Vohidov, O.Matjon, R.Parfi, M.Boboev, E.Oxunova, M.Jalil, O.Hojieva, T.Jo'ra, S.S.Buxoriy, M.Yusuf, H.Xudoyberdieva, S.Sayyid kabi shoirlarning bu jihatdan e'tiborli. Mazkur she'rlar badiiy jihatdan ancha pishiq, tashbehlarga boy, kompozitsion va janriy jihatdan rang barangdir. Onaga bag'ishlangan she'rlarni kompozitsiyasiga ko'ra quyidagicha guruhlashtirish mumkin:

1. Ona ulug'langan she'rlar.
2. Maktub shaklidagi she'rlar.
3. Xotira mazmunidagi she'rlar.

Mirtemir, Sh.Shomuhamedov, A.Oripov, O.Matjon, Yo.Mirzo, T.Sulaymon, H.Sharipov kabi shoirlarning bitiklarida Ona fazilatlarini ulug'lanadi.

Mirtemirning "Sen Ona..." nomli she'ri bu jihatdan e'tiborli. Unda Onaga xos bir qator fazilatlar sharaflanadi:

Alisherga alla aytib uxlatgan

Sen – ona.

Og'ushida Bobur kamolga etgan

Sen – ona.

Torobiyni og'ir jangga jo'natgan

Sen – ona.

Olamni nurida munavvar etgan

Sen – ona.

Yig'lasa, dunyoni raso titratgan

Sen – ona.

Kulgisi saodat parvarish etgan



Sen – ona.

Mehri bahorida elni yashnatgan

Sen – ona.

Onaday oshiq yo'q ona Vatanga

Muhtaram ona.

Shoir yuqoridagi dastlabki satrlarda talmeh orqali onaning ulug' siymolarni dunyoga keltirib voyaga etkazgani badiiy ifoda etilgan bo'lsa. keyingi satrlarda bu fikr rivojlanib boradi. Uning qalbidagi nur olamni munavvar etgani, mehribonligi, fidoiyligi kabi fazilatlarini kuylanadi.

Sh.Shomuhamedovning "Onasan" she'ri g'azal shaklida, aruz vaznida yozilgan:

Jon desam, jondan azizsan, mehribonsan, onasan,

Tanga jon, qalbimga nur bergan, quyoshsan, yana san.

Navnihol, nozik nafas murg'akka aylab jon fido,

Kechalar uyqu harom, bir necha bor uyg'onasan.

Bunda shoir onaga nisbatan berilgan sifatlashlarni takrorlabgina qolmaydi. Uning mehr taftini quyoshga mengzaydi. Bir parcha etni voyaga etkazish uchun chekkan zahmatlarini ulug'laydi.

Gar tikan kirsam oyoqqa yo'lga kirgan chog'ida,

Kipriging birla chiqarmoq bo'lasan, to'lg'onasan.

Bunda onaning fidoiyligi, farzandi uchun har nega tayyorligi tasvirlanmoqda.

Urmagay qalbing meningsiz, tomirimiz bir tepar

Shodligimda shodmonsan, g'amda birga yonasan.

Haqiqatan, ona uchun farzandsiz hayot hayot emas. Uning qalbi farzand qalbi bilan birga uradi. Ona farzand shod bo'lsa shod, g'amga botsa g'amgin bo'ladi.

A.Oripov ijodida ona zoti ulug'langan she'rlar ham ko'pchilikni tashkil qiladi. Shoirning "Yozgin, dedilar" she'ri bu jihatdan ahamiyatli. Adabiyotda gul, borliq, muhabbat haqida she'rlar o'zi bir olam. Biroq Ona mavzusi abadiy. Hayot gultojiga qiyos etgulik bu insonning nurli siymosi ne-ne buyuk asarlar sahifalarini bezab turadi:

Nahot odamlarda so'ngan aqida,

Nahot she'r yo'lidan ozgin, dedilar?

Shoir she'r yozgandi Ona haqida,

Yozaber, dedilar, yozgin! – dedilar.

"O'zbek onasi" deb nomlangan she'ri o'zbek onalarining betakror fazilatlarini ulug'lashga bag'ishlangan:

Seni To'maris deb, maqtaganim bor,

Sen Temur beshigin tebratgan bedor,

Sensan Bibixonim, Nodirai zor,

Payt keldi aytmoqqa gapning xonasi,



Ey o'zbek onasi, o'zbek onasi.

Talmeh san'ati bilan ziynatlangan ushbu misralarda shoir tarixiy shaxslarga ishora qilish asosida onani ularga tenglashtiradi. Binobarin, To'marisga qiyoslanishi bejiz emas. Sababi, To'maris kuchli vatanparvar bo'lishining asosida, avvalo, onalik mehri mavjud edi. Yoxud Temurdek dunyo tanigan shaxslar ham validasi bag'rida kamolga yetgan.

Umuman olganda, zamonaviy she'riyatimizda Ona zotiga bag'ishlangan, uning fazilatlarini tarannum etilgan she'rlar bisyor. Ularda Onaning nurli siymosi, faqat ungagina xos bo'lgan betakror fazilatlar ifoda etilgan. Bunday she'rlar tarbiyaviy mazmun tashiydi: onalarimizni ko'proq ardoqlashga, ularning fidoiyliliklariga farzand sifatida munosib bo'lishga chorlaydi.

Maktub orqali his-kechinmalarni ifoda etish o'zbek mumtoz adabiyotida, qolaversa, dunyo adabiyotida an'anaviylashgan. Binobarin, Xorazmiyning "Muhabbatnoma"si oshiqning ma'shuqaga yo'llangan nomalaridan iborat. Asar o'n bitta maktubdan tashkil topgan. Misol uchun, avvalgi nomada ma'shuqaning go'zalligi ta'rif etiladi:

Pari ruxsoralarning ko'rkka boyi,

Yuzung navro'zu qoshing bayram oyi (16).

E'tibor berilsa, shoir ma'shuqaning pari ruxsoralari orasida ko'rkda, go'zallikda tengsiz ekanini ta'kidlaydi. Yoxud:

Tabassum qilsangiz shakar uyolur,

Tishing injusidan gavhar uyolur –

der ekan, shoir chiroyli kulgu, oppoq tishlar ma'shuqani yanada jozibali ko'rsatib turganligini ifoda etishda mubolag'aga keng o'rin beradi.

Yana:

Soching bir torina ming hur etmas,

Yuzungning nurina ming nur etmas.

Bunda mumtoz she'riyatdagi an'anaga muvofiq soch va yuz ta'rifi keltirilmoqda.

Ikkinchi nomada lirik qahramon sevgiliga bo'lgan muhabbatini, tuyg'u kechinmalarini tong nasimi orqali etkazishni istaydi va unga murojaat qiladi:

Salomim gulga elt, ey tong nasimi,

Kim erur Oy quli, Axtar nadimi.

Gul, Oy, Axtar ko'chma ma'noda yorni ifodalab kelmoqda. "Axtar" forscha so'z bo'lib, yulduz (196,67), "nadim" esa hamsuhbat, yaqin xizmatkor (196,447) deganidir. Demak, shoir tong nasimi orqali yorga salom yo'llayapti va uning quli, xizmatkori bo'lishga ham tayyor ekanini bildirimoqda.

Ko'rinadiki, asardagi nomalar boshidan oxirigacha sevgi maktublaridan tuzilgan. Zamonaviy adabiyotda esa bu an'ana yangicha davom ettirildi. Endi maktublar faqat ma'shuqaga emas, balki ustozga, onaga, singilga – ko'ngilga yaqin kishilarga yo'llash urfga aylandi.

Shular orasida onaga maktub shaklida bitilgan she'rlar alohida badiiy tizimni tashkil etadi. Ularda maktub lirik qahramon tuyg'u-kechinmalarini ifoda etuvchi eng muhim vositalardan biriga aylangan. Zamonaviy she'riyatimizda onaga maktub mazmunidagi she'rlar bisyor.



A.Oripovning «Onamga xat», Rauf Parfining «Onamga xat», M.Boboyevning «Onamga xatlar», S.Ashurning «Onamga maktub» kabi she'r va turkumlari shular jumlasidandir.

Insonga yorug' dunyoni tuhfa etuvchi, uni bag'rida avaylab, mehr berib o'stiruvchi ulug' zot Onadir. Shu bois inson hamisha ona mehriga intilib, intiqib yashaydi. Zamonaviy she'riyatimizda ana shu tuyg'u talqini lirik qahramon maktublari orqali yuzaga chiqqanligi kuzatiladi.

A.Oripovning «Onamga xat» she'ri farzandlik tuyg'ulari bilan limmo-lim:

Qaytgim keldi, onam, yoningga,

Yuragimda ismsiz dardlar.

Sovuq xonam, soat chiq-chiqi

Tashqarida xazonrez bog'lar (43)

Shoir xat orqali onasi bilan dardlashmoqda. U «yuragidagi ismsiz dardlar»dan onasini voqif etmoqda. Kuzga xos hazinlik maktubga ham ko'chgan. Shoir inson ruhiyatidagi turfa jarayonlarni yodga olar ekan, yozadi:

Shodmon yursam, mening yodimga

Sen tushmaysan rostdan, onajon.

Nogahoniy bunday holda-chi,

Shunday ko'rgim keladi seni (43).

Inson o'zini yolg'iz sezgan damlarda darddosh izlaydi. Bunday daqiqalarda birinchi ko'makdosh Onadir. Faqat Onagina farzandini tinglay oladi, unga taskin berib, ko'nglini ko'taradi. Shoir yana bir achchiq haqiqatga bizni ro'baro' qiladi:

Odamlarning qadru qimmatini

Anglamaymiz birga bo'lganda.

Haqiqatan, xalqimiz bekorga «Oldingdan oqqan suvning qadri yo'q» deb aytmagan. A.Oripov bu fikrni yuqoridagi tarzda shoirona ifodalab bergan. Binobarin, onamiz bilan bo'lgan vaqtlarda u haqda kamroq o'ylaymiz. Biroq undan yiroqlashganimiz sari qadru qimmatini anglay boramiz.

Ona, ranjimagil xatimdan,

Men rostini yozdim, shod damim

Sen tushmaysan aslo esimga

Ammo umr o'zi, bilaman,

Solar seni yodimga bot bot,

Ya'ni boshimizni doim ham

Ona bo'lib silamas hayot (44).

So'nggi satrlar hayotiy hukm yanglig' yangraydi. Shoir xulosasi hayotiy: ona farzandiga mehrini turli yo'llar bilan namoyon etadi. Shulardan asosiysi, uning boshini silashidir. Hayotning tekis va notekis yo'llarida inson tolishi tabiiy. Shunday daqiqalarda ona qudrati unga ko'makka keladi.

Rauf Parfining shu nomdagi she'ri Onani qadrlashga chaqiradi:



Eshitdim, onajon, xafa emishsan,
Kechir, oylab senga yozolmadim xat.
Garchi muhabbatdan tilardim ehson,
Yorug' kunlarimga bo'lgandim ilhaq (53).

Farzand uzoqdan turib onasini yo'qlamoqda. Qalbi ozurda bo'lgan lirik qahramon onaning xafaligini his etib turibdi. Chunki ona hamisha farzandini kutib yashaydi.

O'sha gap, sevganim shu aziz Vatan,
Bu qadar tashvishlar yutmagil, bag'rim.
O'ksuk otam kabi hali ham zotan,
Qalqinib-qalqinib turibdi shahrim.

Lirik qahramonning Vataniga mehri beqiyos. Demak, Vatanini sevgan farzand onasiga ham shunday muhabbatli bo'ladi. Shoir onasi huzuriga borolmaganidan xijolatda. Shu bois unga taskin beradi. Ayni damda o'ksuk otasini ham yoddan chiqarmaydi.

Yuzimga nafasing urilar iliq,
Ajib yorug'likka to'lmoqda xona.
Suratim qoshida duolar qilib,
Tag'in yig'ladingmi, mushtipar Ona?

Onaning qudrati cheksiz. Shoir xat yozayotgan soniyalarda onasining «iliq nafas»ini his etib turadi, onasini eslagani uchun undagi qalbi yorug'lik lirik qahramon xonasiga ko'chadi. Ona sog'ingan farzandi suratiga qarab, uni duo qilmoqda. Haqiqatan, onalarning qo'llari hamisha duoda.

Ona, kuylanmagan bir kuy istayman
Va lekin aldoqchi hislar olur jon.
Ehtimol, qalamni bekor qistayman,
Netayin, rostini aytgil, onajon.

Inson dunyoga kelar ekan, mazmunli yashashga intiladi

Mashrab Boboyevning "Onamga xatlardan" turkum she'rlari alohida mazmunga ega.

Onaginam, bedor boqib yulduz to'la samolarga,
Sog'inchimni, salomimni so'zlamayman sabolarga.
Tong nuriga belangancha yumganda har tun ko'zini,
Men bedorman, bedorlikdan dars bergayman daryolarga(58).

Yuqoridagi satrlarda onaning sog'ingan farzandning tuyg'ulari o'z ifodasini topgan. Lirik qahramon yulduz to'la samoga tikilib, yiroqdagi onasini yodga oladi. Tabiatdagi holatlar va lirik qahramon kechinmalari uyg'unlikda tasvir etiladi. Quyoshning chiqib yangi kunning kirib kelishini shoir betakror ifoda etadi. Ya'ni tun tong nuriga belangancha ko'zini yumishida shunday go'zal badiiy manzara ko'z oldimizga keladi. Lirik qahramon farzandning sog'inchini kuchli, shu bois u onaga tomon xayolida tunlarni bedor o'tkazadi. Bunda ham sog'inch holati



mubolag'aviy tarzda tasvirlanadi: lirik qahramon bedorlikda daryolarga dars beradigan darajada fidoiy farzand.

Sh.Qurbonning "Onam qoshidasan yoxud singlim Muhabbatga maktublar" poemasi boshdan oxir she'riy xatlardan tashkil topgan bo'lib, ular singilga yo'llangan. Maktublarning mazmun-mohiyatini o'g'ilning ulug' zot – Ona oldidagi anglangan burchlari, vazifalari tashkil etadi. Ayni zamonda ularda armon ruhi hukmron. Chunki lirik qahramon onasidan yiroqdaligi sabab ko'pda undan xabar olmaydi.

Birinchi maktub xuddi shunday mazmun bilan ibtido topadi:

...Onam qoshidasan, singlim, erta-kech,
Issiq-sovug'idan mudom xabardor.
Biz – aka-ukalar, opachang – nari,
Bosh suqib o'tamiz har-har zamonda (63).

Bunda lirik qahramon onadan yiroqdagi o'g'il qiyofasida namoyon bo'ladi. Shuning uchun onasi qoshidagi singlisiga ko'nglida yig'ilib qolgan armonli kechinmalarni to'kib soladi. Asardagi maktublardan shu narsa anglashiladiki, o'g'il onasiga etarlicha e'tibor ko'rsatolmagan, uning xizmatlarini to'la ado etolmagan.

Shu xatlar asosida lirik qahramon o'z hayotini taftish qiladi, "to'g'ri yashayotgan"ligi haqida o'ylaydi:

Noto'g'ri yashashga chorlaydi turmush,
Mazahlab chorlaydi, chorlaydi bo'zlab
Mayli tushunmasin meni boshqalar,
Ne og'a, ne ini, ne do'stu yoron.
Kojlik etkuradur bir kun tosh qalblar...
Onam tushunsa bas meni, singiljon.

Lirik qahramon singil bilan dillashar ekan, bir hayotiy haqiqatga ishonadi: farzandni har qanday damda tushunish, unga tirgak, hamfikr bo'lish fazilati faqat onalargagina xosdir.

M.Yusufning "Onamdan xat" she'rida ham esa onaning o'g'ilga yo'llagan xati asos bo'lib xizmat qiladi:

O'g'lim, jigargo'sham, aytgin-chi, nahot,
Achinmaydi joning onang holiga.
Meni to'shaklarga mixlab qo'ydi bod,
Kelsang bir ko'rsamu... o'lsam mayliga (182).

Bunda onaning sog'inch tuyg'ulari aks etgan. U betob damlarida o'g'lini ko'rishni, uni bag'riga bosishni istaydi.

Chakka o'tgan eski tomga o'xshayman
Ko'zimdan yomg'irlar to'kilar tinmay.
Bu yorug' dunyoda bormi, bilmayman,



O'z o'g'li yo'liga intizor menday...

Onaning ko'zlaridan tinmay yosh to'kilishi "Ko'zimdan yomg'irlar to'kilar tinmay" tarzida ifoda etilgan. Bu sog'inch belgisidir. Onaning farzandi yo'lida ko'z tikishi umumbashariy mazmunga ega. Bu dunyodagi har bir onaga xos fazilatdir, aslida.

Hayhotdek hovlida qoldim bir o'zim,
Nima xayollarga bormasman ba'zan.
Sog'misan ishqilib, qo'rqaman qo'zim,
Podsholar haqida she'rlar yozasan.

Farzandi uzoqda bo'lgan, yolg'iz qolgan ona undan xavotir chekmoqda, uning uchun astoydil qayg'urmoqda. Bu ham onalarga xos fazilatdir.

O'ynashib bo'larmi, shohlar bilan, ayt,
Qishloqi joningga she'rdan ne huzur?
Zeriksang – bepoyon yaylovingga qayt,
Siqilsang – dashtlarda ot choptirib yur!

Onada bag'rikenglik bor. U o'g'lining shoir bo'lganidan yurakdan quvonsa da, undan xavotir ham oladi. Shuning uchun uning bepoyon yaylovga, dashtlarga qaytishini so'raydi. Aslida bunda ham sog'inch tuyg'ulari aks etgan. "Qo'lingda jon berib o'lsam, mayliga" deya yakunlanadi maktub. Bu har bir onaning so'nggi orzusi, tilagi. Ayni choqda bu misralar farzandga onaning g'animat ekanligini, undan hamisha xabar olibburturish kerakligini eslatib turadi.

Har qanday damda ham insonni tushunadigan zot ham, avvalo, Onadir. Farzand xursand bo'lsa, u bilan qo'shilib quvonadigan, tashvishli daqiqalarda, dardga chalinganda unga suyanch bo'ladigan, dardiga tashvishiga sherik bo'ladigan ham Onadir. M.Yusufning "Onaizor" she'ri shulardan bahs etadi:

Ko'nglim qolsa bulbuldan ham, zog'dan ham,
Qolar bo'lsam bir kun axir tildan ham...
Agar bir zot yig'lasa chin dildan ham –
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u... (183)

Yuqorida ta'kidlaganimizday, farzandning dardini tinglaydigan, unga maslahat beradigan inson Onadir. Inson tushkun kayfiyatga tushgan paytda, ruhiga madad izlagan paytda Onaga talpinadi, intiladi. Shu bois shoirning lirik qahramoni ana shunday holatlar uning uchun qayg'uradigan "chin dildan yig'laydigan" onasi ekanligini ta'kid etadi.

Tonar bo'lsa qo'limdagi tor, dunyo
Uch kun o'tmay unutgay do'st-yor dunyo.
Yeru ko'kni titratib zor-zor dunyo –
Onam yig'lar, onam yig'lar, onam u...

Insonda do'stlik degan ulug' tuyg'u bor. Biroq insonga har qanday damda do'st bo'lguvchi ham Onadir. Shuning uchun M.Yusuf hamma, hatto do'stlar unutganda ham Ona unutmaydi, aksincha farzandi uchun eru ko'kni titratib yig'laydi, deydi. Demak, she'r mutolaasi davomida onaning



fidoiyligi, farzand uchun hamma narsaga tayyor tura olishi, unga chin do'st ekanligi singari jihatlar ko'z oldimizda turadi.

Tahlilga tortganimiz yuqoridagi she'rlar maktub shaklida yaratilgan. A.Oripov, R.Parfi, M.Boboyev, M.Yusuf, Sh.Qurbon kabi shoirlar maktub orqali o'z onasi bilan dillashadi va dardlashadi, unga orzularini va armonli kechinmalarini to'kib soladi. She'r mutolaasi davomida shu tuyg'ular she'rxon qalbiga ko'chadi va uning eng nozik torlarni bilan chertib o'tadi.

Umuman olganda, maktub shaklidagi she'rlar zamonaviy she'riyatimizda o'ziga xos badiiy tizimga ega. Bu she'rlarda lirik qahramon farzandning ona oldidagi burchlari, sog'inch tuyg'ulari aks etgan. Maktub shaklidagi she'rlarda onaning farzandiga har qanday damda darddosh, fikrdosh bo'la olish fazilati, beg'araz mehri qudrati ifoda etilgan.

Adabiyotlar ruyxati

1. Contemporary Authors Online. The Gale Group, 2004. PEN (Permanent Entry Number): 0000111881
2. Julia Spicher Kasdorf. Poets.org. <http://www.poets.org/poet.php/prmPID/362>
3. Karimov N. And others. XXth century the history of Uzbek literature. – Tashkent, 1999.
4. Abdulla Aripov. Dear Mother. - Tashkent, 1969.
5. Орипов Абдулла. Йиллар армони. Ғ.Ғулом номли адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент-1984. 216- б.
6. Орипов Абдулла. Йиллар армони, 447-б
7. А. Ориповнинг 1981 йил август ойида бўлиб ўтган “ЁШ ижодкорларнинг республика семинари2 машғулотигаги суҳбатидан
8. American Poetry (Books), University of Pittsburgh Press; 1st edition (August 28, 2011), p.58
9. Preminger, A., Warnke, F. J., & Hardison Jr, O. B. (Eds.). (2015). *Princeton encyclopedia of*
10. poetry and poetics. New Jersey: Princeton University Press.
11. Julia Spicher Kasdorf, “What I learned from My Mother” *Sleeping Preacher*, U. Pittsburgh, 1992
12. Roza Khabibullaeva Muhammadayubovna. (2020). INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE MOTHER IN ENGLISH AND UZBEK POETRY. INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION, 1(4), 160-164. Retrieved from <http://www.summusjournals.uz/index.php/ijdiie/article/view/331>
13. Khabibullaeva, Roza Mukhammadayubovna (2020) "THE ANALYSIS OF PASTICHE IN “PERSI JACKSON AND THE OLIMPICS” BY RICK RIORDAN," *Scientific Bulletin of Namangan State University*: Vol. 2 : Iss. 6 , Article 29.
Available at: <https://uzjournals.edu.uz/namdu/vol2/iss6/29>
14. Khabibullaeva, R. M. (2020). Analysis of pastiche in the novel “The lightning thief” by Rick



Riordan. ISJ Theoretical & Applied Science, 05 (85), 958-961. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-05->

Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.05.85.182>

15. IN THE WORK OF WILLIAM SHAKESPEARE'S 'HAMLET' THE TRANSFER OF THE NAMES OF THE DISEASE IN DIFFERENT TRANSLATIONS JI Mizrabova, MA Baxronova - IEJRD-International Multidisciplinary Journal, 2021
16. Bakhronova, M. A. (2020). Representation of disease names in the literature. ISJ Theoretical & Applied Science, 06 (86), 141-144.
17. O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida kasallik turlari va ularning lisoniy tavsifi M Baxronova - ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2021
18. Особенности использования современных технологий в обучении МА Бахронова, ЖЖ Атамурадов - УЧЕНЫЙ XXI ВЕКА, 2017
19. Depiction of diseases in literature BM Akhmedovna, TN Nosirovna - International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 2020
20. The Image of Disease in Edgar Allan Poe's "The Masque of the Red Death" BM Akhmedovna, B Shakhnoza - Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 2022